

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi

Toshkent moliya instituti



“Budget hisobi” kafedrası

**“BUDJET TASHKILOTLARIDA
BUHGALTERIYA HISOBI” FANIDAN
MASALALAR TO’PLAMI**

Toshkent-2015

**“Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi” fanidan tayyorlangan
“Masalalar to’plami” Uslubiy qo’llanma. Mehmonov S.U., Ibragimov K.SH.
T.: Toshkent moliya instituti, 2014 yil. 47 bet.**

Ushbu “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi” fanidan tayyorlangan “Masalalar to’plami” bakalavriatning III va IV-bosqich talabalari uchun mo’ljallangan bo’lib, unda «Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi» fanidan Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, ularda hisob siyosatining hususiyatlari, daromadlar va xarajatlar smetasi hamda shtatlar jadvalini tuzish, nomoliyaviy aktivlar hisobi, moliyaviy aktivlar hisobi, debitorlar va kreditorlar bilan hisob kitoblar hisobi, moliyaviy natijalar hisobi, Budjet tashkilotlari moliyaviy hisobotlarining tarkibi va ularni shakllantirish kabi masalalar qamrab olingan bo’lib, talabalar tomonidan mustaqil izlanishlari uchun uslubiy qo’llanma sifatida tavsiya etiladi.

Tuzuvchilar:

Mehmonov S - TMI, “Budjet hisobi” kafedrası mudiri,
i.f.n., dotsent

Taqrizchilar:

Hakimov B - TMI, “Moliyaviy tahlil” kafedrası
mudiri, i.f.n., dotsent

Xolbekov R - Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrası mudiri,
i.f.d., prof.

**Mavzu: Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, uning
nazariy-uslubiy asoslari**

1-Topshiriq

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi oldigi qo’yilgan vazifalarni belgilab bering. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning uslubiy asoslari nimalardan iborat va ularni chizma ko’rinishida aks ettirib bering. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning alohida xususiyatlarini tavsiflang.

2-Topshiriq

Budjet tashkilotlarida qo'llaniladigan memorial order shakllarini to'ldirilishi tartibini amaliy misollar asosida ko'rsatib bering. Memorial orderdagi ko'rsatkichlarni 308-son shakldagi "Bosh-jurnal kitobi"ga tushirish tartibini ko'rsating. 308-son shakldagi "Bosh-jurnal kitobi"ni tuzilishi va ularda yozuvlarni amalga oshirilishini tushuntiring. Budjet tashkilotining daromadlar va xarajatlar smetalarini ijrosi bo'yicha buxgalteriya balansining sxematik kurinishini aks ettiring.

3-Topshiriq

2012 yil 1 yanvar xolatiga Toshkent shaxar shayxontoxur tumanida joylashgan 232-maktabning buxgalteriya balansi quyidagicha bo'lgan

B A L A N S

2012 yil 1 yanvar holatiga

Tashkilot 232-maktab

Davriylik: yillik

O'lchov birligi ming sum

Vazirlik Moliya vazirligi

Budjet turi maxalliy

A K T I V	Qator kodi	Yil boshiga	Yil (chorak) oxiriga
I BO'LIM. NOMOLIYAVIY AKTIVLAR			
1-§. Asosiy vositalar va boshqa uzoq muddatli nomoliyaviy aktivlar			
Asosiy vositalar:			
Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati (010, 011, 012, 013, 015, 018, 019-subschyotlar)	10	257186	
Eskirish summasi (020, 021, 022, 023, 025, 029-subschyotlar)	11	39450	
Qoldiq (balans) qiymati (010 qator – 011 qator)	12	217736	
Nomoddiy aktivlar (030-subschyot)	20		
Asosiy vositalar va boshqa uzoq muddatli nomoliyaviy aktivlar - jami (012+020 qatorlar)	30	217736	
2-§. Noishlab chiqarish aktivlari			
Erni obodonlashtirish (040-subschyot)	40		
3-§. Tovar – moddiy zahiralari			
Tayyor mahsulot (050- subschyot)	50		
Qurilish materiallari (060- subschyot)	60		
Oziq-ovqat mahsulotlari (061- subschyot)	61	0	
Dori–darmonlar va yarani bog'lash vositalari (062-subschyot)	62		

Inventar va xo'jalik jixozlari (063- subschyot)	63	0	
Yonilg'i, yoqilg'i – moylash materiallari (064- subschyot)	64		
Mashina va asbob – uskunalarning ehtiyot qismlari (065- subschyot)	65		
Boshqa tovar–moddiy zahiralalar (069- subschyot)	66	0	
Tovar – moddiy zahiralalar – jami (050+060+061+062+063+064+065+066 qatorlar)	70	0	
4-§. Nomoliyaviy aktivlarga qo'yilmalar			
O'rnatish uchun mo'ljallangan asbob-uskunalar (070- subschyot)	80		
Tugallanmagan qurilish (071- subschyot)	81		
Asosiy vositalarga boshqa xarajatlar (072- subschyot)	82		
Nomoddiy aktivlarga xarajatlar (080- subschyot)	90		
Tovar (ish, xizmat)larga xarajatlar (090- subschyot)	100		
Tovar-moddiy zahiralarga boshqa xarajatlar (091- subschyot)	101		
Nomoliyaviy aktivlarga qo'yilmalar – jami (080+081+082+090+100+101 qatorlar)	110	0	
I BO'LIM BO'YICHA JAMI (030+040+070+110 qatorlar)	120	217736	
II BO'LIM. MOLIYAVIY AKTIVLAR			
Tashkilotni saqlash uchun moliyalashtirilgan Budjet mablag'lari (100- subschyot)	130		
Boshqa maqsadlar uchun moliyalashtirilgan Budjet mablag'lari (101- subschyot)	131		
To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblardan tushgan mablag'lar (110- subschyot)	140		
Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar (111- subschyot)	141		
Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari (112- subschyot)	142	199	
Boshqa Budjetdan tashqari mablag'lar (113- subschyot)	143		
Budjet tashkilotining vaqtincha ixtiyorida bo'ladigan mablag'lar (114- subschyot)	144		
Valyuta hisobvarag'i (115- subschyot)	145		
Boshqa hisobvaraqlardagi pul mablag'lari (119- subschyot)	146		
Milliy valyutadagi naqd pul mablag'lari (120- subschyot)	150		
Xorijiy valyutadagi naqd pul mablag'lari (121- subschyot)	151		

Akkreditivlar (130- subschyot)	160		
Yo'ldagi pul mablag'lari (131- subschyot)	161		
Pul ekvivalentlari (132- subschyot)	162		
Depozitga qo'yilgan pul mablag'lari (140- subschyot)	170		
II BO'LIM BO'YICHA JAMI (130+131+140+141+142+143+144+145+146+150+151+160+161+162+170 qatorlar)	180	199	
III BO'LIM. DEBITORLAR			
Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar (150- subschyot)	190		
Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar (152- subschyot)	191		
Sug'urta bo'yicha to'lovlar (154- subschyot)	192		
To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar (156- subschyot)	193		
Boshqa debitorlar bilan hisob-kitoblar (159- subschyot)	194	2151	
Budjetga to'lovlar bo'yicha Budjet bilan hisob-kitoblar (160- subschyot)	200		
Yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha hisob-kitoblar (161- subschyot)	201		
Shaxsiy jamg'arib boriladigan Pensiya hisobvarag'i badallari bo'yicha hisob-kitoblar (162- subschyot)	202		
Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bilan hisob-kitoblar (163- subschyot)	203	652	
Boshqa Budjetdan tashqari jamg'armalar bilan hisob-kitoblar (169- subschyot)	204		
Kamomadlarga doir hisob-kitoblar (170- subschyot)	210		
Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar (172- subschyot)	211		
Talabalar bilan boshqa hisob-kitoblar (175- subschyot)	212		
Xodimlar bilan boshqa hisob-kitoblar (179- subschyot)	213		
Yuqori va quyi tashkilotlar o'rtasidagi boshqa hisob-kitoblar (180- subschyot)	220		
III BO'LIM BO'YICHA JAMI (190+191+192+193+194+200+201+202+203+204+210+211+212+213+220 qatorlar)	230	2803	
BALANS (120+180+230 qatorlar)	240	220738	

P A S S I V	Qator kodi	Yil boshiga	Yil (chorak)
-------------	---------------	----------------	-----------------

			oxiriga
III BO'LIM. KREDITORLAR			
Mol etkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar (150- subschyot)	250		
Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar (152- subschyot)	251		
Sug'urta bo'yicha to'lovlar (154- subschyot)	252		
Budjet tashkilotining ixtiyorida vaqtincha bo'ladigan mablag'lar bo'yicha hisob-kitoblar (155- subschyot)	253		
To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar (156- subschyot)	254		
Boshqa kreditorlar bilan hisob-kitoblar (159- subschyot)	255	1011	
Budjetga to'lovlar bo'yicha Budjet bilan hisob-kitoblar (160- subschyot)	260	2789	
Yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha hisob-kitoblar (161- subschyot)	261	6003	
Shaxsiy jamg'arib boriladigan Pensiya hisobvarag'i badallari bo'yicha hisob-kitoblar (162- subschyot)	262	240	
Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bilan hisob-kitoblar (163- subschyot)	263	1080	
Boshqa Budjetdan tashqari jamg'armalar bilan hisob-kitoblar (169- subschyot)	264		
Xodimlar bilan ijtimoiy nafaqalar bo'yicha hisob-kitoblar (171- subschyot)	270	750	
Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar (172- subschyot)	271		
Xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblar (173- subschyot)	272	15107	
Stipendiya oluvchilar bilan hisob-kitoblar (174- subschyot)	273		
Talabalar bilan boshqa hisob-kitoblar (175- subschyot)	274		
Xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadigan haq bo'yicha hisob-kitoblar (176- subschyot)	275	776	
Deponentlangan to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar (177- subschyot)	276		
Xodimlar bilan boshqa hisob-kitoblar (179- subschyot)	277		
Yuqori va quyi tashkilotlar o'rtasidagi boshqa hisob-kitoblar (180- subschyot)	280		
III BO'LIM BO'YICHA JAMI (250+251+252+253+254+255+260+261+262+263+264+270+271+272+273+274+ 275+276+277+280 qatorlar)	290	27756	
IV BO'LIM. MOLIYAVIY NATIJALAR			

Budjet mablag'lari bo'yicha xaqiqiy xarajatlar (231- subschyot)	300		
Budjetdan moliyalashtirish (232- subschyot)	301		
Budjet mablag'lari bo'yicha hisobot davriga joriy moliyaviy natija(301-300 qatorlar)	302	0	
To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo'yicha mablag'lar hisobiga amalga oshirilgan xaqiqiy xarajatlar (241- subschyot)	310		
Ta'lim muassasalarida hisoblangan ota-onalarning mablag'lari (242- subschyot)	311		
To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo'yicha hisobot davriga joriy moliyaviy natija (311-310 qatorlar)	312	0	
Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobidan amalga oshirilgan xaqiqiy xarajatlar (251- subschyot)	320		
Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha daromadlar (252- subschyot)	321		
Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar bo'yicha hisobot davriga joriy moliyaviy natija (321-320 qatorlar)	322	0	
Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan xaqiqiy xarajatlar (261- subschyot)	330		
Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha daromadlar (262- subschyot)	331		
Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha hisobot davriga joriy moliyaviy natija (331-330 qatorlar)	332	0	
Boshqa daromadlar bo'yicha xaqiqiy xarajatlar (271- subschyot)	340		
Boshqa Budjetdan tashqari daromadlar (272- subschyot)	341		
Inventarizatsiya natijasida ortiqcha chiqqan mol-mulklar (273- subschyot)	342		
Boshqa daromadlar bo'yicha bo'yicha hisobot davriga joriy moliyaviy natija (341+342-340 qatorlar)	343	0	
Yakuniy moliyaviy natija (351+352+353+354+355+356 qatorlar)	350	192982	
Budjet mablag'lari bo'yicha yakuniy moliyaviy natija (280- subschyot)	351	192282	
To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo'yicha yakuniy moliyaviy natija (281- subschyot)	352		

Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha yakuniy moliyaviy natija (282- subschyot)	353		
Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha yakuniy moliyaviy natija (283- subschyot)	354	700	
Boshqa daromadlar bo'yicha yakuniy moliyaviy natija (284- subschyot)	355	0	
Budjetga va Budjetdan tashqari jamg'armalarga hisoblangan soliq va boshqa to'lovlar bo'yicha imtiyozlar (285- subschyot)	356		
IV BO'LIM BO'YICHA JAMI (302+312+322+332+343+350 qatorlar)	360	192982	
BALANS (290+360 qatorlar)	370	220738	
V BO'LIM. BALANS DAN TASHQARI SCHYOTLAR Ijaraga olingan asosiy vositalar (01)	380		
Mas'ul saqlashga olingan tovar-moddiy qiymmatliklar (02)	381		
Qat'iy hisobot blanklari (04)	382		
Ishonchsiz debitorlarning qarzlari xarajatga chiqazilishi (05)	383		
Markazlashtirilgan ta'minot bo'yicha to'langan moddiy qimmatliklar (06)	384		
O'quvchilar va talabalarning qaytarilmagan moddiy qimmatliklar bo'yicha qarzlari (07)	385		
Ko'chma sport sovrinlari va kuboklari (08)	386		
To'lanmagan yo'llanmalar (09)	387		
Foydalanishdagi inventar va xo'jalik jixozlari (10)	388		
Xarbiy texnikalarning o'quv predmetlari (11)	389		
Eskirganlarining o'rniga berilgan transport vositalarining extiyot qismlari (12)	390		

Talab etiladi:

- 1.308-son shakldagi "Bosh-jurnal kitobi"ni oching va ularda qo'llaniladigan ishchi schyotlarni belgilab oling.
- 2.Balansdagi subschyotlar qolig'ini 308-son shakldagi "Bosh-jurnal kitobi"ga o'tkazing(bunda 010-019 va 020-029 subschyotlar qoliqlarini mustaqil bo'lib oling.
- 3.308-son shakldagi "Bosh-jurnal kitobi"ga o'tkazilgan qoldiqlar bo'yicha debet va kredit qoldiqlarni jamlash asosida solishtiring.
- 4.Tegishli memorial order shakllarini oching.

Mavzu. Budjet tashkilotlarida Budjet va Budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalari hamda shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va taqdim etish tartibi

4-topshiriq

Xarajatlar smetalari xaqida tushunchalaringizni ayting. Xarajatlar smetasi tarkibiy tuzilishini ko'rsating. Budjet tashkilotlarida smetalarni tuzish bo'yicha me'yoriy xuquqiy asoslarni ko'rsating. Vaqtinchalik xarajatlar smetasi qanday tuziladi. Budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalarni tuzilishi tartibini ko'rsating.

5-Topshiriq

Xarajatlar smetasida xarajatlarni hisoblab chiqishda nimalarga amal qilishi kerak. Xarajatlar smetasini ko'rib chiqish va tasdiqlash hamda ro'yxatdan o'tkazish tartibini ko'rsating. Shtatlar jadvali qanday tuziladi. Maktab misolida shtatlar jadvalini shartli ravishda tuzing.

6-topshiriq

Toshkent shaxar, Shayxontoxur tumani 232 maktabning 2012 yil uchun tasdiqlangan smeta xarajatlari ko'rsatkichlari quyidagicha bo'lgan:

Ko'rsatkichlar	Toifa	modda va kichik modda	element	qatorlar kodi	Aniqlangan smeta bo'yicha
Ish haqi (02)	41	10	000	01	323488
Pul shaklidagi ish haqi (03+04)	41	11	000	02	323488
Asosiy ish haqi	41	11	100	03	289172
Ish haqiga ustama va qo'shimcha to'lovlar	41	11	200	04	34316
Umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirishning Direktor jamg'armasi mablag'lari	41	11	210	05	34316
Uy-joy kommunal xizmatlar bo'yicha har oylik kompensatsiya to'lovlari	42	99	100	06	
Nafaqalar (08+09+10+11)	47	11	100	07	0
Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqa	47	11	120	08	X
1-guruh xarajatlari bo'yicha jami (01+06+07+12+13+14+15)	X	X	X	16	323488
Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar (18+21)	41	20	000	17	80156
Ijtimoiy ehtiyojlarga haqiqatda qilinadigan ajratmalar/badallar (19+20)	41	21	000	18	80156
Yagona ijtimoiy to'lov	41	21	100	19	80156

II-guruh xarajatlari bo'yicha jami (17)	X	X	X	22	80156
Kommunal xizmatlari	42	20	000	49	36536
Elektroenergiya	42	21	000	50	3472
Issiq suv va issiqlik energiyasi	42	23	000	52	29640
Sovuq suv va oqova	42	24	000	53	3076
Chiqindilarni tozalash, olib chiqib ketish bilan bog'liq xizmatlar hamda energetik va boshqa resurslar (benzin va boshqa YOMMlardan tashqari)ni sotib olish	42	25	000	54	348
Saqlab turish va joriy ta'mirlash	42	30	000	55	3580
Bino	42	32	000	57	1100
Noturar joy binolari	42	32	200	59	1100
Mashinalar, jihozlar va texnika	42	34	000	63	2480
Boshqa mashinalar, jihozlar, texnika va o'tkazgich qurilmalar	42	34	900	65	2480
Kompyuter jihozlari, hisoblash va audio-video texnika	42	34	920	67	
Elektr energiya va boshqa kommunal xizmatlarni hisobga olish asboblari	42	34	930	68	2480
Moddiy aylanma vositalar zaxiralariga xarajatlar	42	50	000	84	100
Boshqa moddiy aylanma vositalar	42	52	000	89	100
Tovar-moddiy zaxiralar	42	52	100	90	100
Qog'oz xarid qilish uchun xarajatlar	42	52	120	92	100
Tovar va xizmatlar sotib olish uchun boshqa xarajatlar	42	90	000	103	84
Telefon, telekommunikatsiya va axborot xizmatlari	42	92	000	105	84
Telefon, telegraf va pochta xizmatlari	42	92	100	106	84
ASOSIY VOSITALAR BO'YICHA XARAJATLAR	43	00	000	111	4400
Asosiy vositalarni sotib olish	43	50	000	134	4400
Mashinalar, jihozlar va texnika	43	54	000	140	4000
Boshqa mashinalar, jihozlar va texnika	43	54	900	142	4000
Elektr energiya va boshqa kommunal xizmatlarni hisobga olish asboblari	43	54	930	145	4000
Asosiy vositalar sotib olish bo'yicha boshqa turdagi xarajatlar	43	55	000	148	400
Etishtiriladigan aktivlar	43	55	100	149	400
IV-guruh xarajatlari bo'yicha jami (41+106+150+172)	X	X	X	189	44700
Hisobot choragining oxirgi ish kuni oxirida Budjet tashkilotlari hisob varaqlarida qolgan tejab kolingan (foydalanilmagan) Budjet	X	X	X	190	X

tashkilotini rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazilgan mablag'lar summasi					
Xarajatlarning hammasi (16+22+40+186+187)	X	X	X	191	448344

Talab etiladi:

1. Yuqoridagi ko'rsatkichlarni shakllantiriligi asoslarini ko'rsatib bering.
2. Belgilangan tartibda smeta ilovasini tuzib chiqing.
3. Yuqoridagi ko'rsatkichlar asosida belgilangan shakldagi xarajatlar smetasini va shtatlar jadvalini tuzing.

7-topshiriq

Toshkent shahar, Shayxontoxur tumani 232 maktabda pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatiladi. Shuningdek maktab xududida joylashgan 480 kvm. maydonga ega oshxona ijaraga berilgan. Bundan tashqari maktabga xomiylik mablag'lari 2012 yilda Tekstil korxonasi tomonidan 2000 ming so'm berilishi rejalangan.

Talab etiladi:

Shartli ravishda pullik ta'lim xizmatlari uchun kalkulyatsiyasini tuzing hamda o'quvchilar sonini belgilab tushum miqdorini belgilang;
Maktabni 2012 yil uchun rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari tushumi va ular hisobiga xarajatlar bo'yicha smeta tuzing.

Mavzu. Asosiy vosita va nomoddiy aktivlar hisobi

8-Topshiriq

Budjet tashkilotlarida asosiy vositalarni hisobda tan olinishi me'zonlarini ko'rsating, amaliy misollar keltiring. Xizmat muddati va qiymatidan qat'i nazar qaysi mulkiy qiymatliklar asosiy vositalar tarkibiga kiritilmaydi. Asosiy vositalar hisobini tashkil etishda buxgalteriya hisobi oldiga qanday vazifalar qo'yiladi. Asosiy vositalarga inventar raqami berilishi tartibini tushintiring.

9- Topshiriq

Toshkent shahar, Shayxontoxur tumani 232 maktabning 2012 yilda asosiy vositalarni qayta baxolash hamda kirimi bo'yicha quyidagi muomalalar sodir bo'lgan:

№	Muomalalar mazmuni	Dt	Kt	Asos bo'luvchi xujjat	Summa
1	Asosiy vositalarni qayta baxolanishi natijasida ularning boshlang'ich qiymati oshdi				
2	Asosiy vositalarni qayta baxolanishi natijasida ularning eskirish qiymati mos ravishda				

	oshdi				
3	Asosiy vositalar sotib olinganda: a) sotib olingan asosiy vositalarning qiymatiga (sotib olish narxi, shuningdek, etkazib berish va boshqa qo'shimcha xarajatlar)				
	b) Asosiy vositani dastlabki qiymati bo'yicha kirim qilinishi				
4.	Asosiy vositalar beg'araz olinganda: a) belgilangan tartibda aniqlangan bozor qiymati bo'yicha				
	b) etkazib berish va boshqa qo'shimcha xarajatlar summasiga (transport hizmatlari ko'rsatildi)				
	v) asosiy vositani dastlabki qiymati bo'yicha kirim qilinishi				
5	Inventarlar tovar – moddiy zaxiralar tarkibidan asosiy vositalarga o'tkazilganda: a) xaqiqiy qiymati bo'yicha				
	b) tovar – moddiy zaxiralardan o'tkazilgan asosiy vositani dastlabki qiymati bo'yicha kirim qilindi				
6.	Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan hisobga olinmagan asosiy vositalarni bozor qiymati bo'yicha kirmga olindi				

Talab etiladi:

1. Asosiy vositalarni qayta baxolash hamda kirimi bo'yicha muomalalarni summalarini mustaqil (qayta baxolash bo'yicha indekt metodi bo'yicha, sotib olinishi 37-topshiriqda keltirilgan smetada ko'rsatilgan me'yorlar doirasida) belgilang.
2. Asosiy vositalarni qayta baxolash hamda kirimi bo'yicha muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating, xamda hujjatlar blanklarini olib to'ldiring, tegishli memorial orderga o'tkazing.
3. Asosiy vositalarni qayta baxolash hamda kirimi bo'yicha muomalalarni buxgalteriya provodkalarini ko'rsating.

10- Topshiriq

Toshkent shaxar, Shayxontoxur tumani 232 maktabning 2012 yilda asosiy vositalarni eskirishi hisobi bo'yicha quyidagi muomalalar sodir bo'lgan:

№	Muomalalar mazmuni	Dt	Kt	Asos	Summa
---	--------------------	----	----	------	-------

				bo'luvchi xujjat	
	Asosiy vositalarga eskirish hisoblanishi (har oyda)				
	Boshqa tashkilotlardan beg'araz olingan va avval foydalanishda bo'lgan asosiy vositalar-inventar ob'ektlar kelib tushganda: a) dastlabki (tiklanish) qiymatidan eskirishini ayirgan holda				
	b) eskirish summasiga				
	Qayta baholash natijasida asosiy vositani eskirish summasini oshishi				

Talab etiladi:

1. Asosiy vositalarni eskirishi hisobi bo'yicha muomalalarni summalarini mustaqil (eskirish hisoblash me'yorlari asosida) belgilang.
2. Asosiy vositalarni eskirishi hisobi bo'yicha muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating, xamda hujjatlar blanklarini olib to'ldiring, tegishli memorial orderga o'tkazing.
3. Asosiy vositalarni eskirishi hisobi bo'yicha muomalalarni buxgalteriya provodkalarini ko'rsating.

11- Topshiriq

Toshkent shaxar, Shayxontoxur tumani 232 maktabning 2012 yilda asosiy vositalarni hisobdan chiqarilishi bo'yicha quyidagi muomalalar sodir bo'lgan:

№	Muomalalar mazmuni	Dt	Kt	Asos bo'luvchi xujjat	Summa
1	Tugatilishi munosabati bilan asosiy vositalarni hisobdan chiqarilishi: a) hisoblangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi				
	b) qoldiq qiymatini hisobdan chiqarilishi				
	v) vsosiy vositalarni tugatilishi munosabati bilan keyinchalik foydalanishga yaroqli bo'lgan tovar-moddiy zahiralarni kirim qilinishi: - qoldiq qiymati doirasida;				
	- qoldiq qiymatidan oshgan summaga				
2	Asosiy vositalarni sotilishi: 1) bino va inshootlar (chet elda joylashganlaridan tashqari): a) hisoblangan eskirish summasini				

	hisobdan chiqarilishi				
	b) qoldiq qiymatini hisobdan chiqarilishi				
	2) qolgan asosiy vositalar (chet elda joylashganlaridan tashqari): a) dastlabki qiymatini hisobdan chiqarilishi				
	b) hisoblangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi				
	v) asosiy vositalarning sotish qiymati				
	g) bir vaqtning o'zida tegishli Budjet daromadiga hisoblangan summa				
	d) pul mablag'larini kelib tushishi				
	e) Budjetga hisoblangan summalarni o'tkazib berilishi				
	j) asosiy vositalarni sotilishidan ko'rilgan ijobiy moliyaviy natija (daromad yoki zarar)				
3	Asosiy vositalar beg'araz berilganda a) hisoblangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi				
	b) qoldiq qiymatini hisobdan chiqarilishi				
4	Inventarizatsiya natijasida kamomad chiqqan asosiy vositalar summasiga (agarda moddiy javobgar shaxsdan undirilmasa): a) hisoblangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi				
	b) qoldiq qiymatini hisobdan chiqarilishi				
	Inventarizatsiya natijasida kamomad chiqqan Budjet mablag'lari hisobidan sotib olingan yoki sotib olinish manbasi noaniq bo'lgan asosiy vositalar summasiga (agarda moddiy javobgar shaxsdan undirilsa): a) hisoblangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi				
	b) qoldiq qiymatini hisobdan chiqarilishi				
	v) aybdor shaxsdan undiriladigan summaning Budjet daromadlariga hisoblanishi				

	g) aybdor shaxs tomonidan tashkilot kassasiga kamomad summasining to'lanishi				
	d) kamomad summasini hisobvaraqqa kirim qilinishi				
	e) mablag'larni Budjet daromadiga o'tkazib berilishi				
	Moddiy javobgar shaxs kamomad chiqishida aybdor deb tan olingan holda (agarda asosiy vosita Budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan xarid qilingan bo'lsa): a) hisoblangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishi				
	b) qoldiq qiymatini hisobdan chiqarilishi				
	v) agarda, mazkur asosiy vositaning qoldiq qiymati moddiy javobgar shaxs hisobiga olib borilgan summadan kam bo'lsa				
	g) agarda, mazkur asosiy vositaning qoldiq qiymati moddiy javobgar shaxs hisobiga olib borilgan summadan ko'p bo'lsa				
	d) aybdor shaxs tomonidan kamomad summasining to'lanishi				

Talab etiladi:

1. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarilishi bo'yicha muomalalarni summalarini mustaqil belgilang.
2. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarilishi bo'yicha muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating, xamda hujjatlar blanklarini olib to'ldiring, tegishli memorial orderga o'tkazing.
3. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarilishi bo'yicha muomalalarni buxgalteriya provodkalarini ko'rsating.

12- Topshiriq

Toshkent shahar, Shayxontoxur tumani 232 maktabning 2012 yilda nomoddiy aktivlar hisobi bo'yicha quyidagi muomalalar sodir bo'lgan:

№	Muomalalar mazmuni	Dt	Kt	Asos bo'luvchi xujjat	Summa
1	Nomoddiy aktivlarni sotib olinishi: a) sotib olish qiymati va boshqa sotib olish bilan bog'liq qo'shimcha				

	xarajatlar summasiga				
	b) Nomoddiy aktivlarni dastlabki qiymati bo'yicha kirim qilinishi				
2	Nomoddiy aktivlar beg'araz olinganda: a) belgilangan tartibda aniqlangan bozor qiymati bo'yicha				
	b) etkazib berish va boshqa qo'shimcha xarajatlar summasiga, agar amalga oshirilsa				
	v) nomoddiy aktivlarning dastlabki qiymati bo'yicha kirim qilinishi				
3	Muddati tugashi yoki yaroqsiz holga kelganligi munosabati bilan nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarilishi				
4	Nomoddiy aktivni sotish: a) dastlabki qiymatini hisobdan chiqarilishi				
	b) nomoddiy aktivning sotish qiymati				
	g) pul mablag'larini kelib tushishi				
	d) nomoddiy aktivni sotilishidan ko'rilgan ijobiy moliyaviy natija (daromad)				
5	Inventarizatsiya natijasida kamomad chiqqan nomoddiy aktivlar summasiga				

Talab etiladi:

1. Nomoddiy aktivlar hisobi bo'yicha muomalalarni summalarini mustaqil belgilang.
2. Nomoddiy aktivlar hisobi bo'yicha muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating, xamda hujjatlar blanklarini olib to'ldiring, tegishli memorial orderga o'tkazing.
3. Nomoddiy aktivlar hisobi bo'yicha muomalalarni buxgalteriya provodkalarini ko'rsating.

Mavzu. Tovar moddiy zahiralar hisobi

13 – Topshiriq

Tovar moddiy zaxiralarni hisobda tan olinishi me'zonlarini ko'rsating. Tovar moddiy zaxiralar hisobini tashkil etishning me'yoriy-xuquqiy asoslarini ko'rsating. Tovar moddiy zaxiralar hisobini tashkil etishda buxgalteriya hisobining vazifalarini amaliy misollar bilan ko'rsating. Tovar moddiy zaxiralarni baholash tartibini ayting. Budget tashkilotlarida tovar moddiy zaxiralar hisobini tashkil etishning xususiyatlarini sharxlang.

14 – Topshiriq

Budjet tashkiloti hisobotiga ko'ra xo'jalik va kantselyariya mollari qoldig'i yil oxiriga 352000 ming so'mni tashkil etgan. Yil davomida 1250000 ming so'mlik xo'jalik va kantselyariya mollari sarfi amalga oshirilgan, yoqilg'i va moylash materiallari qoldig'i yil oxiriga 540000 ming so'mni tashkil etgan. Yil davomida 2050000 ming so'mlik yoqilg'i va moylash materiallari sarfi amalga oshirilgan.

Talab etiladi:

Quyidagi jadval yordamida tovar moddiy zaxiralarni me'yordan ortiqcha qoldig'i mavjudligini aniqlang

(ming so'mda)

Ko'rsatkichlar	subschi ot raqam- lari	Me'y or (kunda)	Yil boshi ga qoldiq	Yil oxiriga qoldiq	Yil mobaynid a qilingan xarajat	1 kunlik xarajat	Me'y or	Me'yord an ortiq zahira
1	2	3	4	5	6	7	8	9
Xo'jalik va kantselyariya materiallari								
Yoqilg'i-moylash materiallari								

15-Topshiriq

Toshkent shaxar, Shayxontoxur tumani 232 maktabning 2012 yilda tovar moddiy zaxiralar hisobi bo'yicha quyidagi muomalalar sodir bo'lgan:

№	Muomalalar mazmuni	Dt	Kt	Asos bo'luvchi xujjat	Summa
1	Sotib olingan kantselyariya mollari qiymati				
2	Sotib olingan kantselyariya mollari xaqiqiy qiymati bo'yicha kirim qilinishi				
3	Jismoniy va yuridik shaxslardan beg'araz olingan kantselyariya mollari qiymati				
4	Beg'araz olingan kantselyariya mollari xaqiqiy qiymati bo'yicha kirim qilinishi				
5	Tashkilotni o'zida tayyorlangan qurilish materiallari xaqiqiy ishlab chiqarish xarajatlari summasiga				
6	Tashkilotni o'zida tayyorlangan qurilish materiallarini xaqiqiy qiymatda kirim qilinishi				

7	Qurilish materiallarini sotilishini aks ettirish xaqiqiy qiymati				
8	Kantselyariya mollari sotish qiymati				
9	Bir vaqtning o'zida 50 foizi tegishli Budjet daromadiga hisoblangan summa				
10	Bir vaqtning o'zida tashkilotga tegishli 50 foizi daromadga o'tkazilganda				
11	Pul mablag'larini kelib tushganda				
12	50 foiz Budjetga hisoblangan summalarni o'tkazib berilishi				
13	Kantselyariya mollarini sotilishidan ko'rilgan moliyaviy natija (foyda yoki zarar)				
14	Qurilish materiallarini beg'araz berish				
15	Inventarizatsiya natijasida kamomad chiqqan kantselyariya mollarining chiqim qilinishi				
16	Inventarizatsiya natijasida kamomad chiqqan Budjet mablag'lari hisobidan sotib olingan kantselyariya mollari summasiga: a) kam chiqqan kantselyariya mollarining qiymatini hisobdan chiqarilishi				
	b) aybdor shaxsdan undiriladigan summaning Budjet daromadlariga hisoblanishi				
	v) aybdor shaxs tomonidan kamomad summasini to'lanishi				
	g) mablag'larni Budjet daromadiga o'tkazib berilishi				

Talab etiladi.

1. Tovar moddiy zaxiralar bo'yicha muomalalarni summalarini mustaqil (37-topshiriqda keltirilgan smetada ko'rsatilgan me'yorlar doirasida) belgilang.
2. Tovar moddiy zaxiralar bo'yicha muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating, xamda hujjatlar blanklarini olib to'ldiring, tegishli memorial orderga o'tkazing.
3. Tovar moddiy zaxiralar bo'yicha muomalalarni buxgalteriya provodkalarini ko'rsating.

Mavzu. Budget tashkilotlarida tovar(ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlari hisobi.

16 - Topshiriq

Budget tashkilotlarida tovar (ish, xizmat)lar ishlab chiqarishni tashkil etishning me'yoriy xuquqiy asoslarini sharxlang. Mahsulot(ish,xizmat) lar ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlarni ko'rsating. Mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxini aniqlashning asosiy usullari ko'rsating hamda amaliy misollar keltiring. Mahsulot(ish,xizmat) lar ishlab chiqarish xarajatlari hisobini xujjatlashtirish hamda hisob registrilarida aks ettirishni ketma – ketlikda aks ettiring.

17-Topshiriq

Toshkent shaxar, Shayxontoxur tumani 232 maktabning 2012 yilda pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatish bo'yicha quyidagi muomalalar sodir bo'lgan:

№	Muomalalar mazmuni	Dt	Kt	Asos bo'luvchi xujjat	Summa
1	Pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatish jarayonida kantselyariya mollari sarflanganda				
2	Pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatishda band bo'lgan xodimlarga ish haqi hisoblanganda				
3	Pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatishda band bo'lgan xodimlarga hisoblangan ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to'lov ajratmalari hisoblanganda				
4	Pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatishda foydalanilgan asosiy vositalarga eskirish hisoblanganda				
5	Pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatish xarajatlari hisobdan chiqarilganda				
7	Pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatishda mablag'lar kelib tushganda				
	Pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatish bo'yicha moliyaviy natija aniqlandi.				

Talab etiladi.

1. Pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatish bo'yicha muomalalarni summalarini mustaqil belgilang.
2. Pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatish bo'yicha muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating, xamda hujjatlar blanklarini olib to'ldiring, tegishli memorial orderga o'tkazing.

3. Pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatish bo'yicha muomalalarni buxgalteriya provodkalarini ko'rsating.

Mavzu. Budjet tashkilotlarida moliyaviy aktivlar hisobi

18-Topshiriq

Moliyaviy aktivlar haqida nimalarni bilasiz. Moliyaviy aktivlar hisobini tashkil etishda buxgalteriya hisobi oldiga qanday vazifalar qo'yiladi. Moliyaviy aktivlar buxgalteriya hisobida qaysi schyotlarda yuritiladi. Moliyaviy qo'yilmalar haqida nimalarni bilasiz. Budjet tashkilotlarida moliyaviy aktivlar hisobini me'yoriy xuquqiy asoslarini ko'rsating.

19-Topshiriq

Toshkent shahar, Shayxontoxur tumani 232 maktabning 2012 yilda hisobvaraqdagi Budjet mablag'lari bo'yicha quyidagi muomalalar sodir bo'lgan:

№	Muomalalar mazmuni	Dt	Kt	Asos bo'luvchi xujjat	Summa
1	Budjet mablag'lari hisobidan xodimlarga beriladigan ish haqi summasi kassaga kirim qilinganda (ish xaqi bo'yicha moliyaviy majburiyat to'lab berilganda)				
2	Budjet mablag'lari hisobidan ish haqiga nisbatan hisoblangan yagona ijtimoiy to'lov summasi o'tkazib berilganda (ish haqiga ajratmalar bo'yicha moliyaviy majburiyat to'lab berilganda)				
3	Kapital qurilish bo'yicha pudratchilarga bajarilgan ishlar uchun Budjet mablag'i hisobidan o'tkazilganda (qurilish-ta'mirlash ishlari bo'yicha moliyaviy majburiyat to'lab berilganda)				
4	Tasdiqlangan smeta doirasida kommunal xizmatlar uchun Budjet mablag'lari hisobidan mablag' o'tkazilganda. (kommunal to'lovlar bo'yicha moliyaviy majburiyat to'lab berilganda)				

Talab etiladi.

1. Hisobvaraqdagi Budjet mablag'lari bo'yicha muomalalarni summalarini mustaqil (37-topshiriqda keltirilgan smetada ko'rsatilgan me'yorlar doirasida) belgilang.
2. Hisobvaraqdagi Budjet mablag'lari bo'yicha muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating, xamda hujjatlar blanklarini olib to'ldiring, tegishli memorial orderga o'tkazing.

3. Hisobvaraqdagi Budget mablag'lari bo'yicha muomalalarni buxgalteriya provodkalarini ko'rsating.

20-Topshiriq

Toshkent shaxar, Shayxontoxur tumani 232 maktabning 2012 yilda hisobvaraqdagi rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha quyidagi muomalalar sodir bo'lgan:

№	Muomalalar mazmuni	Dt	Kt	Asos bo'luvchi xujjat	Summa
1	Pullik ta'lim xizmatlarini sotishda shartnoma bahosida aks ettirilishi				
2	Pullik ta'lim xizmatlarini sotishdan mablag' kelib tushganda				
3	Sotilgan mahsulot(ish va xizmat)dan ijobiy moliyaviy natija aks ettirilganda				
4	Budget tashkilotlarida vaqtincha foydalanmayotgan binolar, boshqa asosiy vositalar ijarasidan tushimlar				
5	Homiylik mablag'lari tushimi aks ettirilganda				
6	Yil yakuniga ko'ra Budget mablag'lari bo'yicha iqtisod qilib qolingani mablag'lar rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazilganda				
7	Rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari kreditlik qarzdorliklarni tugatishga yo'naltirilganda				

Talab etiladi.

1. Hisobvaraqdagi rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha muomalalarni summalarini mustaqil belgilang.
2. Hisobvaraqdagi rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating, xamda hujjatlar blanklarini olib to'ldiring, tegishli memorial orderga o'tkazing.
3. Hisobvaraqdagi rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha muomalalarni buxgalteriya provodkalarini ko'rsating.

21-Topshiriq

Toshkent shaxar, Shayxontoxur tumani 232 maktabning 2012 yilda kassadagi pul mablag'lari xarakati bo'yicha quyidagi muomalalar sodir bo'lgan:

№	Muomalalar mazmuni	Dt	Kt	Asos bo'luvchi xujjat	Summa

Talab etiladi.

1. Muomalalar mazmunini mustaqil tuzing.
2. Kassadagi pul mablag'lari xarakati bo'yicha muomalalarni summalarini mustaqil belgilang.
3. Kassadagi pul mablag'lari xarakati bo'yicha muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating, xamda hujjatlar blanklarini olib to'ldiring, tegishli memorial orderga o'tkazing.
4. Kassadagi pul mablag'lari xarakati bo'yicha muomalalarni buxgalteriya provodkalarini ko'rsating.

Mavzu. Turli debitor va kreditorlar bilan hisoblashuvlar hisobi

22-Topshiriq

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlar bo'yicha hisoblashuvlarni yuzaga kelishi xolatlarini ko'rsating. Moliyaviy majburiyat va yuridik majburiyatlarni moxiyatini sharxlang, amaliy misollar keltiring. Budjet tashkilotlarida debitorlar va kreditorlar hisobini yuritishning hususiyatlarini ayting.

23-Topshiriq

Toshkent shaxar, Shayxontoxur tumani 232 maktabning 2012 yilda mol etkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashuvlar bo'yicha quyidagi muomalalar sodir bo'lgan:

№	Muomalalar mazmuni	Dt	Kt	Asos bo'luvchi xujjat	Summa
1	Etkazib berilgan qurilish materiallari, konstruktsiyalar va detallar, boshqa tovar-moddiy qiymatliklar uchun to'langan mablag'lar summasiga				
2	Mol etkazib beruvchilardan omborga kelib tushgan qurilish materiallari summasiga				
3	Qurilish materiallarini olib kelishda transport xizmatlari ko'rsatilganda				
4	Pudratchilarning bajargan qurilish-montaj ishlari summasiga				

Talab etiladi.

1. Mol etkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashuvlar bo'yicha muomalalarni summalarini mustaqil belgilang.
2. Mol etkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashuvlar bo'yicha muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating, xamda hujjatlar blanklarini olib to'ldiring, tegishli memorial orderga o'tkazing.

3. Mol etkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashuvlar bo'yicha muomalalarni buxgalteriya provodkalarini ko'rsating.

24-Topshiriq

Toshkent shaxar, Shayxontoxur tumani 232 maktabning 2012 yilda Budjetga to'lovlar bo'yicha Budjet bilan hisob-kitoblar yuzasidan quyidagi muomalalar sodir bo'lgan:

№	Muomalalar mazmuni	Dt	Kt	Asos bo'luvchi xujjat	Summa
1	Xodimlar ish haqidan belgilangan tartibda daromad solig'i bo'yicha ushlanmalar amalga oshirilganda				
2	Xodimlar ish haqidan belgilangan tartibda shaxsiy jamg'arib boriladigan Pensiya hisobvarag'i badallari bo'yicha ushlanmalar amalga oshirilganda				
3	Xodimlar ish haqidan belgilangan tartibda daromad solig'i bo'yicha ushlanmalar Budjetga o'tkazib berilganda				
4	Xodimlar ish haqidan belgilangan tartibda shaxsiy jamg'arib boriladigan Pensiya hisobvarag'i badallari bo'yicha ushlanmalar o'tkazib berilganda				
5	Tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi daromadlari bo'yicha foyda solig'i hisoblanganda				
6	Tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi daromadlari bo'yicha hisoblangan foyda solig'i imtiyoz ko'rinishida aks ettirilganda				

Talab etiladi.

1. Budjetga to'lovlar bo'yicha Budjet bilan hisob-kitoblar yuzasidan muomalalarni summalarini mustaqil belgilang.
2. Budjetga to'lovlar bo'yicha Budjet bilan hisob-kitoblar yuzasidan muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating, xamda hujjatlar blanklarini olib to'ldiring, tegishli memorial orderga o'tkazing.
3. Budjetga to'lovlar bo'yicha Budjet bilan hisob-kitoblar yuzasidan muomalalarni buxgalteriya provodkalarini ko'rsating.

25-Topshiriq

Toshkent shaxar, Shayxontoxur tumani 232 maktabning 2012 yilda Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bilan hisob-kitoblar yuzasidan quyidagi muomalalar sodir bo'lgan:

№	Muomalalar mazmuni	Dt	Kt	Asos bo'luvchi xujjat	Summa
1	Xodimlarning hisoblangan ish xaqalaridan Pensiya jamg'armasiga ushlangan majburiy badallar summasiga				
2	Xodimlarning hisoblangan ish xaqalaridan Pensiya jamg'armasiga ushlangan majburiy badallar summasini o'tkazib berilishi				
3	Qonunchilikka muvofiq sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning haqiqatdagi xajmidan hisoblangan ajratmalar				
4	Qonunchilikka muvofiq sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning haqiqatdagi xajmidan hisoblangan ajratmalarni imtiyoz ko'rinishida aks ettirish				
5	Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan amalga oshiriladigan Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlar va boshqa to'lovlar hisoblanganda (so'rovnoma shaklini tuzing)				
6	Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan amalga oshiriladigan Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha hisoblangan to'lovlar kelib tushganda				

Talab etiladi.

1. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bilan hisob-kitoblar yuzasidan muomalalarni summalarini mustaqil belgilang.
2. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bilan hisob-kitoblar yuzasidan muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating, xamda hujjatlar blanklarini olib to'ldiring, tegishli memorial orderga o'tkazing.
3. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bilan hisob-kitoblar yuzasidan muomalalarni buxgalteriya provodkalarini ko'rsating.

Mavzu. Hodimlar va stipendiya oluvchilar bilan hisoblashuvlar hisobi

26-Topshiriq

Budjet tashkilotlarida xodimlar bilan hisoblashuvlarni amalga oshirilishi tartibini tushintiring. Kamomadlar bo'yicha xodimlar bilan hisoblashuvlar qanday amalga oshiriladi. Hizmat safari yuzasidan xodimlar bilan hisoblashuvlarni amalga oshirilishi tartibini ko'rsating. Stipendiya oluvchilar bilan hisoblashuvlarni amalga oshirilishi tartibini sharxlang. Xodimlar va stipendiya oluvchilar bilan hisoblashuvlarni me'yoriy-xuquqiy asoslarini ko'rsating.

27-Topshiriq

Toshkent shahar, Shayxontoxur tumani 232 maktabning o'qituvchilari K. Ravshanov va S.Rasulovlar 2012 yilning 28 mart - 27 aprel kunlari Andijon viloyatida tashkil etilgan malaka oshirish kursida bo'lib qaytishgan. Toshkent-Andijon, Andijon –Toshkent yo'nalishida ko'cha transportidan foydalanishgan lekin yo'l chiptasi mavjud emas. Yotoqxona xarajatlari bo'yicha xam xech qanday xujjat taqdim etishmagan.

Talab etiladi:

1. O'qituvchilarga transport xarajatlari qancha miqdorda qoplanishini toping;
2. O'qituvchilarga yotoqxona xarajatlari qancha miqdorda qoplanishini toping;
3. O'qituvchilarga sutkalik xarajatlari qancha miqdorda qoplanishini toping;
4. Xar bir o'qituvchi uchun aloxida avans hisoboti tuzing;
5. Xarajatlarni buxgalteriya yozuvlarida aks ettiring;
6. Tegishli memorial orderga tushiring.

28-Topshiriq

Toshkent shahar, Shayxontoxur tumani 232 maktabning 2012 yilda xodimlar bilan ish xaqi bo'yicha hisob-kitoblar yuzasidan quyidagi muomalalar sodir bo'lgan:

№	Muomalalar mazmuni	Dt	Kt	Asos bo'luvchi xujjat	Summa
1	Xodimlarga mehnat haqi hisoblanganda				
2	Xodimlarga hisoblangan ish haqidan ushlanmalar amalga oshirilganda:				
	a) daromad solig'i				
	b) 6 % Pensiya jamg'armasiga badal				
	v)Xodimlar ish haqidan belgilangan tartibda shaxsiy jamg'arib boriladigan Pensiya hisobvarag'i badallari				
	g) Kasaba uyushmasi badali				
3	Ish xaqi kassadan tarqatilganda				
4	Ish haqi plastik kartochkalarga o'tkazib berilganda				

Talab etiladi.

1. Xodimlar bilan ish xaqi bo'yicha hisob-kitoblar yuzasidan muomalalarni summalarini mustaqil belgilang.
2. Xodimlar bilan ish xaqi bo'yicha hisob-kitoblar yuzasidan muomalalarga asos bo'luvchi xujjatlarni ko'rsating, xamda hujjatlar blanklarini olib to'ldiring, tegishli memorial orderga o'tkazing.
3. Xodimlar bilan ish xaqi bo'yicha hisob-kitoblar yuzasidan muomalalarni buxgalteriya provodkalarini ko'rsating.

29-Topshiriq

Maktab bosh hisobchisi 2012 yil 5 avgustdan 24 ish kunidan iborat mehnat ta'tiliga chiqdi. Bu xodimning oylik ish haqi miqdori shtatlar jadvali bo'yicha 350000 so'mga teng bo'lgan. Bir yil davomidagi mukofot ko'rinishida olingan ish haqisi 2 500 000 so'mga teng bo'lganligi aniqlandi.

Talab etiladi:

1. Xodimni mehnat ta'tili uchun ish xaqisini aniqlang;
2. Buxgalteriya xujjatlarida aks ettiring;
3. Buxgalteriya yozuvida aks ettiring va tegishli memorial orderga tushiring.

30-Topshiriq

Maktab bosh hisobchisi 2012 yil iyul oyida 26 ish kunidan 5 ish kuni kasalligi tufayli ishga chiqmagan 21 ish kuni haqiqatda ishlagan. Ish staji 9 yilni tashkil etadi. Shu vaqtda oylik ish haqi tasdiqlangan shtatlar jadvaliga muvofiq 350000 so'mni tashkil etgan. Bir yil davomidagi mukofot ko'rinishida olingan ish haqisi 2 500 000 so'mga teng bo'lganligi aniqlandi.

Talab etiladi:

Xodimni mehnatga layoqatsizlik nafaqasini toping;

Buxgalteriya xujjatlarida aks ettiring;

Buxgalteriya yozuvida aks ettiring va tegishli memorial orderga tushiring

Mavzu. Budget mablag'lari bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar hisobi

31-Topshiriq

Budget tashkilotlarida moliyaviy natijalarni shakllanishini sxematik ko'rsatib bering va misollar keltiring. Budget tashkilotlarining daromadlariga sharx bering. Budget tashkilotlarining xarajatlariga sharx bering. Budget tashkilotlarining daromadlari manbaalari bo'yicha moliyaviy natijalarning sxematik ko'rinishini ko'rsating.

32-Topshiriq

Toshkent shaxar, Shayxontoxur tumani 232 maktabning 2012 yilda Budget mablag'lari bo'yicha amalga oshirgan xaqiqiy va kassa xarajatlarini aniqlang. Budget mablag'lari bo'yicha amalga oshirgan xaqiqiy va kassa xarajatlari hisobiga shakllangan moliyaviy natijani aniqlang(quyidagi jadvalda ko'rsating).

№	Muomalalar mazmuni	Dt	Kt	Asos bo'luvchi xujjat	Summa

Moliyaviy natija ijobiy yoki salbiy bo'lsa nima xolat yuzaga kelganligini aniq ko'rsatib bering.

Mavzu. Budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar hisobi

33-Topshiriq

Budjet tashkilotlarida Budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar qanday aniqlanadi. Budjet tashkilotlarida Budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar buxgalteriya yozuvlarida aks ettirish tartibini ko'rsating. To'lovlarni mahsus turlariga doir hisoblashuvlar bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar hisobini shakllantirish tartibini aytib bering. Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar hisobini shakllantirish tartibini aytib bering. Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar hisobini shakllantirish tartibini aytib bering. Budjet tashkilotini boshqa Budjetdan tashqari daromadlari bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar hisobini shakllantirish tartibini aytib bering

34-Topshiriq

Toshkent shaxar, Shayxontoxur tumani 232 maktabning 2012 yilda Budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha amalga oshirgan xaqiqiy va kassa xarajatlarini aniqlang. Budjetdan tashqari(manbaalari bo'yicha alohida) mablag'lari bo'yicha amalga oshirgan xaqiqiy va kassa xarajatlari hisobiga shakllangan moliyaviy natijani aniqlang(quyidagi jadvalda ko'rsating).

№	Muomalalar mazmuni	Dt	Kt	Asos bo'luvchi xujjat	Summa

Moliyaviy natija ijobiy yoki salbiy bo'lsa nima xolat yuzaga kelganligini aniq ko'rsatib bering.

Mavzu. Yakuniy moliyaviy natijalar hisobi

35-Topshiriq

Yakuniy moliyaviy natija qanday aniqlanishini ko'rsating. Yakuniy moliyaviy natijalarni shakllanishi hisobini tushuntirib bering. Yakuniy moliyaviy natijalarni shakllanishini hisobga oluvchi schyotlarni tavsifini aytib bering.

Yakuniy moliyaviy natijalarni shakllantirishni buxgalteriya yozuvlarida aks ettirish tartibini aytib bering.

36-Topshiriq

Yuqoridagi topshiriqlar ma'lumotlaridan kelib chiqib Toshkent shahar, Shayxontoxur tumani 232 maktabning 2012 yilda shakllangan yakuniy moliyaviy natijani aniqlang (quyidagi jadvalda ko'rsating).

№	Muomalalar mazmuni	Dt	Kt	Asos bo'luvchi xujjat	Summa

Moliyaviy natija ijobiy yoki salbiy bo'lsa nima xolat yuzaga kelganligini aniq ko'rsatib bering.

Mavzu. Budget tashkilotlarida moliyaviy hisobotlar, ularni tuzish, tasdiqlash hamda taqdim qilish tartibi

37-Topshiriq

Budget tashkilotlarda Budget va Budgetdan tashqari mablag'lar smetalari ijrosi bo'yicha choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim qilish tartibini tushintiring. Budget tashkilotlari tomonidan topshiriladigan yillik moliyaviy hisobotlar tarkibini ko'rsating. Xar bir moliyaviy hisobot shaklini tuzilishi tartibini ko'rsating. Budget tashkilotlari tomonidan tuziladigan va taqdim qilinadigan moliyaviy hisobotlarni axborot imkoniyatlarini sharxlang.

38-Topshiriq

Toshkent shahar, Shayxontoxur tumani 232 maktabning 2012 yil faoliyati bo'yicha yuqoridagi topshiriqlar ko'rsatkichlaridan kelib chiqib quyidagi hisobot shakllarini tuzing.

- Balans (1-shakl);
- Xarajatlar smetasining ijrosi haqida hisobot (2-shakl);
- Debitorlik va kreditorlik qarzar to'g'risida ma'lumot;
- Budget tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot;
- Boshqa Budgetdan tashqari mablag'lar harakati bo'yicha hisobot;
- Joriy yilning moliyaviy natijalari to'g'risida hisobot;
- Nomoliyaviy aktivlarning harakati to'g'risida hisobot.